



MAQSAD SARI INTILISH UCHUN KUCHLI MOTIVATSIYA

To'xtayev Sardor Sul'ton o'g'li

Jahon iqtisodiyot va Diplomatika Universiteti Xalqaro huquq fakulteti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5558763>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-oktabr 2021

Ma'qullandi: 05-oktabr 2021

Chop etildi: 10-oktabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Maqsad, talabalik, motivatsiya, ilm olish, o'ziga bo'lgan ishonch, mehnat.

ANNOTATSIYA

Hayotda har bir inson o'z oldiga aniq bir maqsadlarni qo'yadi va ularga erishish yo'lida tinimsiz mehnat qiladi. Ammo har kimning ham irodasi sinovlarga bardosh berolmaydi. Bu hayotda 18 yil yashab shunga amin bo'ldimki, inson o'z irodasi va kuchiga tayanishi, mehnatdan hamda ilm olishdan qochmasligi kerak ekan. Ushbu maqolamda, men o'z erishgan yutuqlarim, qiyinchiliklar va ularni qanday yenganim, eng muhimi maqsadlarimga erishdagi motivatsiya haqida fikr yuritaman.

Inson bu dunyoga kelgan ekan, albatta, nimalargadir erishishi, shu ulkan dunyoning bir zarrasi bo'lsada nimadir qilishga, jamiyatda o'z o'rnini topishga harakat qilishi kerak deb hisoblayman. Men 2003-yil 4-yanvar Qashqadaryo viloyati Qarshi shaharida tug'ilganman. Hozirda 18-yoshdaman. Kichikligimda oyimni oilamiz tarixi biz kimmiz? Katta bobom kim? Bobomni dadasi kim bo'lgan kabi savollar bilan bezor qilgan ekanman. Endi o'ylab qolaman, demak o'sha paytdan menda tarix faniga juda qiziqish kuchli bo'lgan ekan. Men 1-sinfga Qarshi shahar 36-maktabga 2009-yil 1-sentabrdan borganman. 4-5 sinf vaqtlarimda tarix fan meni shunchalar sehrlab olgandiki, do'stlarim uchun yodlanishi qiyin bo'lgan raqamlarni osongina esda saqlab qolardim. Tarixni

o'rganish men uchun juda maroqli ish edi. Shu boisdan ham tarix kitoblarini bolishim ostiga qo'yib uxlardim.

2016-yil 12-yanvardan ya'ni 7-sinf paytim Qarshi Davlat 1-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga o'tganman. U yerda ham o'qishdan va ilm o'rganishda doimgidan kuchliroq harakat qildim. Ta'lim jarayonida menda turli qiyinchiliklar bo'ldi. Ammo men uchun bir narsa muhim edi: yaqin kelajakda shu qilgan mehnatlarim ortidan o'z xohlagan oliygohimga kirish va ota-onamning menga bildirgan ishonchlarini oqlash hissi edi. Tarix fani boshida aytganimdek, men uchun hamisha qiziq bo'lgan. Shu boisdanmi, tong sahargacha dars qilsam ham charchamas edim.



Olgan bilimlaringiz qay darajada ekanligini bilish uchun, albatta, siz o'z bilimingizni sinab ko'rishingiz kerak. Tarixdan olgan bilimlarim sabab 2017-yil o'tkazilgan Olimpida Qarshi shahar miqyosida 1-o'rin olganman. Bu ilk kichik muvaffaqiyat menga chinakam motivatsiya bo'lgan. Spngra ushbu olimpiadaning viloyat bosqichida 3-o'rin egalladim. Bu menga o'zimdan kuchliroq tengqurlarim borligini va yanada kuchliroq o'qishim kerakligini anglashimga yordam bergandi. Shundan keyin yanada puxta tayyorlanishga kirishdim. Buning natijasida, 2018-yil ya'ni 9-sinfda tahsil olayotgan vaqtimda tarix fanidan o'tkazilgan Respublika olimpiadasida Qarshi shahar bosqichida 1-o'rinni va keyin viloyat bosqichida ham 1-o'rin egalladim. Qaysidir ma'noda men dastlabki maqsadimga erishdim hisob edi. O'sha kuni g'olib diplomi bilan uyga qaytish o'zgacha bir baxtiyorlik hislarini bergandi. Oilamning sevinchi esa menda o'zimdan mamnunlik va qilgan mehnatlarimni samarasini ko'rayotganimdan xursand edim. O'sha yili tarix fanidan o'tqazilgan innovatsion Olimpida ham shahar bosqichida ham viloyat bosqichida 1-o'rinni olib Olimpidaning Respublika bosqichida medal va sertifikat bilan taqdirladim. Bu mening ilk katta yutuqlarim edi. O'zimga va o'z bilimimga ishonch paydo bo'ldi. Lekin kibrga berilmadim, yanada o'z ustimda ishlab, tarix fanini chuqurroq o'rganishga kirishdim. Bilim olishda va izlanishda davom etdim. 2019-2020-yillarda ya'ni 10-11-sinfdagilimda tarix fanidan o'tqazilgan Olimpidaning shahar va viloyat bosqichida yana g'oliblikni qo'ldan bermadim. Shu yili 11-sinfni qizil diplom va oltin medal bilan tamomladim.

Endi esa katta hayot ostonasida o'z taqdirimni tanlash va o'z kasbimni topish bo'yicha qat'iy qarorga kelishim kerak edi. Shunda o'z bilimni sinab ko'rish uchun bir qator xorijiy va O'zbekiston oliy ta'lim muassasalariga o'qishga hujjat topshirdim. So'ngra imtixonlar natijasida natijasiga ko'ra 20 ta xorijiy va o'zbek oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilindim. Xorijiy oliy ta'lim muassasalariga turli miqdordagi grantlarni yutdim.

Men qabul qilingan universitetlar: 1. Vistula, 2. Wroclaw, 3. Final international, 4. Segi (commerce Malayziya), 5. Segi (IT), 6. Isik university, 7. Kypris west university, 8. Lazarskiy, 9. Lazarskiy (aviation), 10. Istanbul Bilgi university, 11. The Lancaster university (Angliya), 12. TMCI, 13. Webster university (Amerika), 14. Missouri university (Amerika), 15. Cambridge International university (Angliya), 16. IMICA (Angliya - Ruskin university), 17. Altinbas university, 18. Isma University (Latviya), 19. Team university (Angliya) va 20. Jahon iqtisodiyot va Diplomatika Universiteti (O'zbekiston).

Yuqorida keltirilgan chet el davlatlar universitetlari katta miqdordagi grant miqdori berishlariga qaramay, men Jahon iqtisodiyot va Diplomatika Universiteti Xalqaro huquq fakulteti yo'nalishida ta'lim olishni tanladim. Hozirda ushbu oliygohda 1-bosqich talabasiman. Bundan tashqari, o'z kelajagim haqida aniq tasavvurga egaman. O'zim uchun to'g'ri deb bilgan hayot yo'limni tanlab oldim. Hozirda bo'sh vaqtlarimda maqolalar yozib turaman. Misol uchun "Tasavurimda jonajon - Uzbekiston" nomli maqolam Rossiyaning Xalqaro nufuzli "Образование и наука в XXI веке" jurnalida nashr etildi. Shuningdek, jurnal tomonidan menga



xalqaro sertifikat va tashakurnoma yuborildi. Shu jumladan, "Jahon miqyosida yuridik ta'lim: muamolar va ularning yechim turlari" ga bag'ishlangan olmiy maqola. xalqaro "Scientific Progress" jurnalida chop etildi va xalqaro sertifikat bilan taqdirlandim. Shu asnoda, Polshaning nufuzli Xalqaro jurnali "Modern scientific challenges and trends" da yana bir ilmiy maqolam bosildi. Jurnal tomonidan menga xalqaro sertifikat jo'natildi.

Xulosa qilib aytganda, inson mehnat qilish va ilm olish bilan o'z maqsadlariga

erisha oladi. Bu yo'lda siz uchun motivatsiya bu sizning o'zingiz. Sizdan boshqa hech kim sizga aslida kuchli motivatsiya berolmaydi. O'zingiz va o'z kuchingizga ishonsangiz, maqsadlarga erishish ham osonlashadi. O'z bilimlarimga asoslangan maqolalar boshqalar uchun ham foyda keltiradi deb o'ylayman. Shu boisdan, ko'proq ilmiy izlanishlar qilishni maqsad qilib qo'ydim. Eng muhimi, inson ilm olishi va o'z maqsadlariga erishish yo'lida har qanday sinovlarni yengishi kerak.

References:

1. Scientific Progress
2. Modern scientific challenges and trends